

НАВОИЙ САБОҚЛАРИ

Ўзгос Ismoilov. “Найрат ул-аброр” на’тлари.....	3
--	---

ШЕЪРИЯТ МИНТАҚАЛАРИ

Румин шеъриятидан. (<i>Русча ва руминчадан Шерзод Ортиқов таржимаси</i>).....	11
--	----

НАСР

Всеволод Гаршин. Надежда Николаевна. Қисса. (<i>Русчадан Саиджалол Саидмуродов таржимаси</i>).....	19
Алекс Ратерфорд. Таҳқирланган тахт. Роман. (<i>Русчадан Нажмиддин Икромий таржимаси</i>)	52
Ҳаким Сатторий. Французча талқин. Ҳикоя.	125

ТИЛ. ТАРИХ. МАЪНАВИЯТ

Муҳаммад Али. “Рамаяна” – жаҳон маданияти дурдонаси	149
Отаули. Руҳий юксалиш. Бадиа.	159
Ғайбулла Бобоёр. Ўрхун-энасой битиктошлари: тил, ёзув, жамият	191

“HAYRAT UL-ABROR” NA’TLARI

Alisher Navoiy Sharq adabiyotida mavjud bo‘lgan odobi tasnifga muvofiq asarlari tarkibiga an’anaviy na’t boblar kiritgan. Bunday boblar adabiyotshunoslikda payg‘ambar adabiyoti namunalari deb ataladi, chunki unda Muhammad alayhissalom siymosi, faoliyati, mo‘jizalari badiiy sharhlanadi. Na’t – o‘zbek mumtoz adabiyotning eng muhim va doimiy mavzularidan biri, uning o‘ziga xos masalalari, motivlari, obrazlar tizimi va tasvir vositalari shakllangan. Mazkur mavzu muallif dunyoqarashi, badiiy-falsafiy tafakkurini idrok etishda katta ahamiyatga ega bo‘lib, shaxs va jamiyat takomilida muhim o‘rin tutadi. Shu bois Navoiy har bir asari, ayniqsa, masnaviyolari debochasida albatta, na’t mavzusiga murojaat etadi. Muallifning adabiy-estetik tafakkur tarzi va uning manbalarini yaxshi anglamay turib, u yaratgan badiiy asarlar mohiyatini ilg‘ab bo‘lmas ekan, na’tlar bu borada nihoyatda qimmatli adabiy manba hisoblanadi.

Alisher Navoiy birgina “Hayrat ul-abror” dostonining o‘zida beshta na’t (VII, VIII, IX, X va XI boblar) bitgan. Ahmad Taroziyning qayd etishicha, qaysi janrda bo‘lishidan qat’i nazar, “agar Muhammad Mustafo alayhissalom vas-salomni vasf qilsalar, na’t derlar”¹. Ularning dastlabki to‘rttasi vasf na’t, beshinchisi esa me’roj na’t bo‘lib, Navoiy ushbu besh bobni aniq kompozitsiya asosida tartiblagan. Ularda nubuvvat masalasi keng va batafsil badiiy talqin etilgan.

“Avvalgi na’t”da Muhammad alayhissalomning nuri qadimiyati, ya’ni nuri muhammadiya haqida, ushbu nurning otadan otaga, onadan onaga o‘tib, so‘nggi payg‘ambarning onasiga qadar yetib kelishi to‘g‘risida so‘z boradi. Navoiyga ko‘ra, Muhammad alayhissalomning nuri na soya, na nur mavjud bo‘lmagan bir zamonda zuhr etgan. Bu nur ikki jahon yaratilishidan oldin, hali hech nima yaratilmagan chog‘da jilva qilgan. Shunga qaramay:

*Bo‘ldi sanga Odam sabqatnamo,
Avval o‘g‘ul, so‘ngra gar o‘lsa ato...
Kimki munga da‘viyi hujjat etar,
“Kuntu nabiiyan” anga hujjat yetar².*

Ya’ni, Odam vujud bobida sendan ilgariroq (ota o‘rnida) bo‘lsa-da,

1. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. – Тошкент: Хазина, 1996. – Б. 32.

2. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. МАТ. 20 томлик. Т. 7. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 33. Изoh: keyingi parchalar ham shu nashrdan olinadi va tegishli sahifasi ko‘rsatiladi.



(yaratilish nuqtayi nazaridan) senga o'g'ul hisoblanadi. Kim bu qarash tasdiqi uchun hujjat so'rasa, "Kuntu nabiiyan" deb boshlanuvchi hadis u uchun yetarli dalildir.

Darhaqiqat, *nuri Muhammadiy* yoxud *haqiqati Muhammadiy* haqidagi qarashlarni isbotlash uchun aksar manbalarda "Kuntun nabiiyan" deb boshlanuvchi hadisga tayaniladi: "...payg'ambarimiz, sallallohu alayhi va olihi va sallam, garchi shahodat olamida payg'ambarlarning oxirigisi edi, ammo g'ayb olamida ularning avvalidir. Payg'ambar alayhissalom buyurdilar: "Kuntu nabiiyan va Odamu bayna-l-mo'i va-t-tini", ya'ni Odam hali suv ila tuproq orasida ekanida men payg'ambar edim. Bu hadisning ma'nosi shuki, buyuklik va saxovat sohibi avvallarning avvalida (azalda) – u zamonda tanho Alloh bo'lib, boshqa narsalar yaratilmagan edi, hech bir o'zga vujudsiz o'ziga o'zi ilk tajalli qilganida har narsaning asli yolg'iz Allohning o'zida edi. Bu zamonda mavjudotning haqiqati ilohiy zotdan ayro bo'lmaganidek, bir-biridan ham farqli emas edi. Bu martabani "ta'ayyuni avval" va "haqiqati Muhammadiy"¹ deydilar va boshqa barcha mavjudotning haqiqati ana o'sha haqiqatning juzlari va tafsiloti hisoblanadi. Ularning surati bilan voqe' bo'lgan tajalliyot g'ayb olamida o'sha haqiqat suratidagi tajallidan yoyilgandir"².

Navoiy tasvir davomida Muhammad nuri haqidagi qarashlarini asoslash uchun o'zi "ixtiro etgan" poetik dalillardan ham keltiradi:

*O'zga dalil istasa tab'i saqim,
Basdurur Odamda "alif", "dol"-u "mim"*³.

Ya'ni, qing'ir tab' yana dalil istasa, u uchun "Odam" so'zidagi "alif", "dol" va "mim" harflari kifoya.

Navoiy bu o'rinda harfiy san'at yaratgan, bunda Odam (ادم) va Ahmad (احمد)⁴ ismlarining arabiy yozilishini nazarda tutib Odam ismidagi har uch harf – alif, dol, mim, aslida, Ahmad ismida mujassam ekani, o'gilning ismidagi uch harf otadan nishona ekanini eslatadi.

"Ahmad" ismidagi "ho" (ح) esa "muhabbat" (محبت) ning "ho" sig'a ishora bo'lib, bu payg'ambar alayhissalom ilohiy muhabbatdan nasibador ekanligini, Haqning habibi ekanligini anglatadi. Navoiy bu boradagi fikrlarini muammo san'ati orqali ham go'zal ifodalashga erishgan:

1. Haqiqati Muhammadiya – mutasavvuf va oriflar istilohida taayyuni avval (ilk yaralish) kabi ahadiyat zoti va Allohning barcha ismlari mazhari ma'nolarida qo'llanadi [Sajjodiy Ja'far. Farhangi istilohot va ta'biroti irfoniy. – Tehron: Tahuriy, 1370 (h.). – S. 325].

2. Чомй А. Шавоҳид-ун-нубувват. – Хуҷанд: Ношир, 2014. – С. 30 – 31.

3. Ҳайрат ул-аброр, – Б. 33.

4. Ahmad – hamd aytuvchi ma'nosida bo'lib, Muhammad alayhissalomning ismlaridan biridir ("Saf" surasi, 6-oyatda Ahmad ismi kelgan).

*Har neki haq vajhi aro mubham ul,
Zohir etib yuzda habibi ham ul¹.*

Ya’ni, har nima Haq (حق) jamoli uzra chigal bo’lib ko’rinib tursa, habibi (حبيب) ham o’shani yuzida zohir etadi. Bunda birinchi misradagi vajhi (yuzi) so’zi “haq” so’zining birinchi harfiga, ikkinchi misradagi yuzda so’zi esa “habibi” so’zining ilk harfiga ishora qilmoqda. Binobarin, “Haq” so’zining boshida qaysi harf chigal bo’lib – buralib turgan bo’lsa, “habib” so’zining boshida ham shu harf joylashgan. Navoiyning mahorati shundaki, u Muhammad alayhissalom Haqning muhabbatiga sazovor ekanligi, uning mazhari ekanligi haqidagi haqiqatni “har nima Haq (حق) jamoli uzra chigal bo’lib ko’rinib tursa, habibi (حبيب) ham o’shani yuzida zohir etadi” deya iyyom bilan badiiy ifodalab beradi.

Navoiy shu tariqa sha’shayi Ahmadiy – Muhammad nuri dastlab Odam alayhissalomga, undan Havvoga, undan Shis alayhissalomga, xullas, otadan otaga, onadan onaga ko’chib oxirzamon payg’ambarining onasiga qadar yetib kelgani, bu ona “risolat durining maxzani, balki nubuvvat gulining gulshani” bo’lgani haqida yozadi.

“Ikkinchi na’t”da Muhammad alayhissalomning tug’ilishi va qirqqa kirgunga qadar bo’lgan hayoti tasvirlanadi. Navoiy payg’ambar tug’ilgach Quraysh ahli orasiga ixtilof tushgani, kimdir g’amzada, kimdir xursand bo’lgani, otasiz o’sgani bilan xuddi durri yatim (yagona dur)ga o’xshashi, bu davrda uning eng asosiy fazilatlarini odob, hayo va vafo bo’lgani, tijorat bilan shug’ullangani, savdogarlar orasida laqabi Amin (ishonchli, saqlovchi) bo’lgani, bir muddat halol cho’ponlik qilgani, ko’plab jafolar tortgani, lekin hamisha lutf ko’rsatgani, jafokorlar haqqiga xayrli duolar qilgani, muborak yuz va ulug’ axloq egasi bo’lgani borasidagi xulosalarini masnaviy shaklida batafsil ifodalaydi. Bob payg’ambarning iqbol yulduzi yo’l ko’rsatuvchi ekanini qayd etish va unga va oilasiga salom aytmoq lozimligi haqidagi qaydlar bilan yakunlanadi.

Navoiy mazkur masalalarga daxldor fikrlari ifodasida katta badiiy mahorat ko’rsatadi. Jumladan, Muhammad alayhissalom tug’ilib, keksa olam asrlar davomida bunday pokiza go’dakni ko’rmagani, u ikki olamning javhari yakdonasi o’laroq dunyoga kelgani to’g’risida yozilar ekan, u tug’ilgach, avvalo, kufr tog’i, but va butparastlar yerga past bo’lgani haqidagi haqiqatlar badiiy talqin etiladi:

*Makkada din ahlig’a muknat bo’lub,
Uzzi ila lotqa uzlat bo’lub².*

“Muknat” – qudrat, davlat ma’nolarini anglatadi. “Uzzo” va “Lot” butlarning nomi. Navoiy Muhammad alayhissalom tug’ilgach Makkada

1. Ҳайрат ул-аброп, – Б. 33.

2. Шу манба.

din ahli quvvat topib, butparastlar uzlat (zalolat)ga yuz tutdi, degan fikrni ifodalashni maqsad qiladi. E'tiborlisi, ushbu fikr ifodasida badiiy mahorat ko'rsatib, birinchidan, "uzzo" va "lot" so'zlari biriksa, "uzlat" hosil bo'lishiga, ikkinchidan, butlar bir bo'lib yo'qlikka yuz tutdi degan ma'noga qoyil-maqom ishora qilishning uddasidan chiqadi. Mumtoz she'ryatda bunday tasvir usulini istixroj deb atashadi.

"Uchinchi na't"da Muhammad alayhissalomning payg'ambarlik davri va mo'jizalari qalamga olinadi. U zotning soyasizligi, qalam bilan yozmay turib ko'p millatlarning avvalgi shariatlarini bekor qilgani, barmog'i bilan oyni ikkiga yorgani esga olinadi:

*Bo'lmadi gar xoma boshin yormog'ing,
Yordi qamar xomasini bormog'ing¹.*

Bundan tashqari payg'ambarning shafotchi ekanligi, abadiy rahmat o'laroq yuborilgani, yangi va mukammal din – islomni keltirgani va islom tufayli kufr zulmati yorishib, butparastlik barham topgani hikoya qilinadi:

*Lotki andin edi ding'a balo,
Sen ushotib poyasini bo'ldi lo.
Kufr eliga ulki bor erdi Manot,
Bo'ynini sen sindurubon bo'ldi mot².*

Navoiy fikrlarni quruq bayon qilmaydi, doim ifodada ma'no va badiiyat uyg'unligini saqlab turishga jiddiy e'tibor qaratadi. Yuqoridagi ikki baytda ham buning yorqin isbotini ko'rish mumkin. Shoir, birinchidan, dastlabki baytda "sen dinga balo yetkazuvchi bo'lgan Lotning oyog'ini sindirib yo'q qilding" degan ma'noni, keyingi baytda esa "sen kofirlarning buti bo'lgan Manotning bo'ynini sindirib uni mot qilding" degan ma'noni ifodalagan. Bu yuzada qalqib turgan, fikr oqimida anglashiladigan ma'nolar. Biroq Navoiy so'z san'atkori sifatida faqat shu bilan qanoat qila olmasdi, shu bois mazkur ikki ma'noga yana ikki go'zal poetik ma'no ham qo'shadi. Ya'ni ilk baytda "sen dinga balo yetkazuvchi bo'lgan Lotning oyog'ini sindirib yo'q (lo) qilding" degan ma'nodan tashqari, "Lot" so'zining oyog'i (ya'ni "t" harfi) sindirilsa (olib tashlansa), "lo" (ya'ni "yo'q") so'zi qoladi degan ma'noni ham ifodalashga erishgan. Ikkinchi baytda esa "sen kofirlarning buti bo'lgan Manotning bo'ynini sindirib uni mot qilding" degan ma'nodan tashqari "Manot" so'zining bo'yni (ya'ni "n" harfi) sindirilsa (olib tashlansa), "mot" so'zi hosil bo'ladi degan mantiq ham badiiy ifodalangan. Navoiyning ma'no ifodasiga bunday yondashuvi muammo san'atining go'zal namunalarini yuzaga keltirgan va fikr ifodasining kuchli estetik ta'sir kasb etishiga olib kelgan.

1. Хайрат ул-аброп, – Б. 38.

2. Шу манба.



“To’rtinchi na’t”da payg‘ambarlik osmonining (Muhammad alayhissalomning) yuksakligi va butun olamlarni samodek qamrab olishdagi qudrati haqida, shuningdek, uning to’rt sahobasi to’g‘risida yoziladi.

Navoiy payg‘ambarning nafasi mo’jizalarning asosi degan fikr bilan bobni boshlaydi va ortidan payg‘ambar alayhissalomning fasohat (chiroyli so‘zlash) bobida ham e’joz (mo’jiza) ko‘rsatgani haqidagi qarashlarni badiiy ifodalaydi:

*Nutq aro chun zohir o‘lub mo‘jizing,
Ahli fasohat bo‘lubon ojizing¹.*

Shoir shundan so‘ng Muhammad alayhissalom hayotida ro‘y bergan mo’jizaviy voqealar tafsiliga kirishadi. Dastlab “shaqqal-qamar”, ya’ni barmog‘i ishorasi bilan oyni ikkiga bo‘lgani, dushmanlaridan yashiringanda g‘orning pardador bo‘lib qolishi voqealari eslanadi:

*Xasmidin o‘lg‘onda anga parda g‘or,
Og‘zida o‘rgamchi bo‘lub pardador.
Aylamasun deb yel ila parda sayr,
Bayzasidin tugma toqib anda tayr².*

Ya’ni, g‘or payg‘ambar alayhissalom uchun dushmanidan parda bo‘lganida, g‘or og‘zidagi o‘rgamchi pardador (darbon, eshik qo‘riqchisi) bo‘ldi. Qush esa parda yel tufayli hilpiramasin deb unga o‘z tuxumidan tugma qadadi.

Ushbu go‘zal tasvirlar, aslida, Savr g‘orida Muhammad alayhissalom bilan bog‘liq holda yuz bergan voqealar to‘g‘risida. Payg‘ambar alayhissalom makkalik mushriklar qasd qilgach Abu Bakr roziyallohu anhu bilan Makka yaqinidagi Savr tog‘iga yashirinadi. Rivoyatlarga ko‘ra, ular yashiringan g‘or kichik (o‘ra) bo‘lib, dushman bosh suqib bemalol ichini ko‘rish mumkin bo‘lgan. Lekin shu paytda Allohning farmoni bilan anchadan beri odam kirmagandek ko‘rsatish uchun g‘or og‘ziga o‘rgimchak uy soladi, shuningdek, bir qush (ba’zi rivoyatlarda ikki yovvoyi kabutar) in qurib tuxum qo‘yadi, natijada qidirib kelganlar bu holatni ko‘rib qaytib ketishadi.

Navoiy mana shu voqeani tasvirga tortar ekan, undagi har bir detal vositasida ajoyib tashbihlar yaratib, yangi poetik ma’nolarni yuzaga chiqarishga erishadi. G‘orni pardaga, o‘rgimchak pardador (darbon)ga, qush tuxumini tugmaga tashbih qiladi. Mazkur tashbihlar o‘zaro mantiqiy izchillikda (parda – pardador – tugma) bog‘lanib o‘ziga xos obrazlilikni yuzaga chiqargan. Shoir tasvirda davom etib o‘rgimchak uyasining torlarini jon rishtasiga, tugmalari (tuxumlari)ni yirik gavharga ham o‘xshatadi. Keyingi

1. Ҳайрат ул-аброп, – Б. 40.

2. Шу манба.

baytda g'or obrazini jonlantirish orqali yana bir go'zal tashbih yaratadi: go'yo g'or u dom va donni qo'yish orqali noyob baxt qushi (payg'ambar)ni ovlagan. Shuningdek, shoir g'orda Payg'ambar alayhissalomning Abu Bakr bilan birga turish holatini tog' ichidagi oltin-kumushga o'xshatadi.

Navoiy shundan so'ng to'rt sahoba ta'rifi ga kirishadi:

*Ruh edi ul bahri nubuvvat duri,
To'rt rafiqi tanining unsuri¹.*

Ya'ni, payg'ambarlik dengizining duri bo'lgan Muhammad alayhissalom ruh bo'lsa, to'rt sahobasi tanining to'rt unsuri edi.

Shu tariqa sahobalar ta'riflangach, payg'ambar alayhissalomning Madinaga hijrati, ansorlar yordamida dinni oyoqqa qo'yishi voqeasi hikoya qilinadi. Bob payg'ambarning oilasi va yaqinlariga Allohning rahmatini tilash bilan yakunlanadi.

"Beshinchi na't" payg'ambarning yana bir mo'jizasi – me'roj kechasiga bag'ishlangan. Navoiy me'roj kechasini aniq kompozitsiya asosida tasvirlaydi. Mazkur kompozitsiya, asosan, quyidagi qismlardan iborat:

1. Sarlavha.
2. Kecha (shom) tasviri.
3. Payg'ambar holati tasviri.
4. Jabroyilning kelib xabar yetkazishi va Buroq tasviri.
5. Ko'tarilish (sakkiz qavat osmondan o'tish) tasviri.
6. Arshga chiqish tasviri.
7. Lomakon va o'zlikning yo'qolishi tasviri.
8. Tavhid tasviri.
9. Qaytish tasviri.

Biz quyida mazkur bosqichlardan ayrimlarini izohlashga harakat qilamiz. Sarlavhadagi "Subhonallazi asro" va "biabdihi laylan minal-masjidil haromi ilal-masjidil-aqso" arabiy jumalari "Al-Isro" surasining ilk oyatidan² olingan iqtiboslar bo'lib, ular me'roj kechasini tasdiqlovchi ishonchli dalillar ekani aytiladi.

Navoiy ushbu sarlavhadan so'ng me'roj kechasi tasviriga kirishadi:

*Bir kecha zulmatqa qolib koinot,
Mehr nihon o'ylaki aynul-hayot.
Garchiki ul chashma nazardin qochib,
Xizr ko'k uzra qatarotin sochib³.*

1. Xайрат ул-аброп, – Б. 43.

2. Al-Isro (17) surasining ilk oyati: "O'z bandasini kechasi Masjidul Haromdan atrofini barakali qilganimiz Masjidul Aqsoga mo'jizalarimizni ko'rsatish uchun sayr qildirgan Zot rok bo'lsin". Manba: Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. Иккинчи нашр. 3-жуз. – Тошкент: Шарқ, 2008. – Б. 396.

3. Xайрат ул-аброп, – Б. 44.

Koinot bir kecha zulmatda qolib, quyosh hayot bulog’idek nihon bo’lgan edi. Garchi u buloq nazardan g’oyib bo’lgan bo’lsa-da, Xizr ko’k (samo) uzra uning qatralarini sochib qo’ygan edi.

Navoiy tungi samoning bunday go’zal manzarasini yaratar ekan zinhor asl maqsaddan chalg’imaydi va har bir detal yoki obraz tasvirida kuchli mantiq, maqsadga vobastalik hosil qilib boradi. Shoir yuqoridagi baytlarda olamga tun cho’kib, quyosh botgani, ammo uning uchqunlari (yulduzlar) samo uzra sochilib turganini ifodalagan. Lekin bu yuzaki ma’no bo’lib, baytlar zamirida tagma’nolar ham aks etgan.

Navoiy fikr ifodasida folklor motivlari silsilasidan samarali foydalana-di – dastlabki baytdagi zulmat motivi tasviri ikkinchi misrada quyoshni hayot bulog’i (ayn ul-hayot)ga o’xshatishni taqozo etgan, ushbu tashbihning yana bir asosi “nihonlik” belgisidir. Natijada ikkinchi baytdagi tasvir doirasiga Xizr, ko’k (osmon; rang) va qatra (tomchi) motivlari ham tortilgan. Muxtasar aytganda, Xizr, ko’k (yashil), hayot chashmasi, qatra, zulmat motivlari birlashib, bir tomondan, yuqoridagi “yuzaki ma’no”ga ishora qiladi, boshqa tomondan, obihayot haqidagi mashhur afsonaga ishora qiladi. Afsonaga ko’ra, obihayotdan ichgan kishi mangu tirik qoladi, Xizr esa uzoq safar orqali u buloq suvidan bahramand bo’lgan zot hisoblanadi.

Agar obihayot so’fiylar istilohida “Allohning “hayy” (tiriklik) sifati”, “irfon” va “ilohiy tajalliy” ma’nolari uchun ramzlashtirilgani inobatga olinsa, me’roj tuni tasviri nima uchun obihayot va unga aloqador motivlar bilan bog’liq holda boshlangani ayon bo’ladi. Ya’ni bu o’rinda Muhammad alayhissalomning me’roj kechasida samoga ko’tarilib Allohning jilvasidan, haqiqati (irfoni)dan bahramand bo’lishi Xizrning zulmatga safar qilib obihayotga erishgani voqeasiga o’xshatilmoqda. Bu tashbihni ichdan nurlantirib tugan jihat shuki, har ikki voqeaning yakuni ham uyqash – har ikki qahramon alaloqibat ilohiy ma’rifat, irfondan bahramand bo’lish orqali abadiyat qozonadi.

Me’roj hodisasi tasvirining boshidanoq bunday tashbihning yaratilishi chuqur mantiqqa ega bo’lib, Navoiy bu orqali bobda Haqqa yetishish, ma’rifatidan ogohlik masalalari ifodasini maqsad qilganiga ishora qiladi. Zero, Sharq adabiyotida Muhammad alayhissalomning uruji ruhiy yuksalish va ma’naviy kamolot bobida dasturulamal ham hisoblanadi.

Me’roj kompozitsiyasidagi “o’zlikning yo’qolishi” va “tavhid” qismlari tasviri ham ma’naviy kamolot haqidagi qarashlarni, talqinlarni tasdiqlaydi:

*Chun o’zini aylab o’zidin xalos,
Pardayi izzatda qilib o’zni xos.
Anda yetib gum bo’lubon o’trusi,
Har necha ko’z solsa, baqo ko’zgusi...*

*Kim tan anga boshtin-oyoq jon edi,
Joni dog'i vosili jonon edi*¹.

Bu, aslida, irfon ahlining, oshiq-larning azaliy va asosiy orzusi hisoblanadi. Xullas, Navoiy Muhammad alayhissalomning izzat pardasi orqali baqo ko'z-gusiga nazar solgani, joni jononiga yetishganini tasvirlagach, payg'ambarning nurga g'arq bo'lgan-cha ortga qaytishini bayon qiladi. Muhammad alayhissalomdagi o'zgarishlarni "G'uncha borib, toza guliston kelib, Zarra borib, mehri daraxshon kelib" tarzida obrazli tasvirlab beradi.

Xullas, Navoiy besh na'tning har birida payg'ambar alayhissalom hayotining bir jihati borasida maxsus yozadi. *Birinchi na'tda* tug'ilmasidan oldingi haqiqatlar, *ikkinchi na'tda* tug'ilishi va qirqqa kirguncha bo'lgan hayoti, tabiati, *uchinchi na'tda* payg'ambarlik davri, mo'jizalari, yangi din keltirib avvalgi shariatlarni bekor qilgani, butparastlikka barham bergani, *to'rtinchi na'tda* yuksakligi va butun olamlarni samodek qamrab olishdagi qudrati, payg'ambarlik davridagi g'arib voqealar, shuningdek, uning to'rt sahobasi va hijrati, *beshinchi na'tda* esa me'roj voqeasi qalamga olinadi.

Shaklan besh qismni tashkil etgan na'tlar mohiyatan yagona masala doirasida bo'lib, ular payg'ambarni vasf etishga yo'naltirilgan, faqat har bir qismda vasf etiluvchining turli jihatlariga e'tibor qaratilgan. Agar besh qismli na't bir butun matndek tasavvur etilsa, uning bu tarzda mufassil yozilishi payg'ambar alayhissalom vasfini mukammal aks ettirish niyati bilan aloqador ekani oydinlashadi. E'tiborli tomoni shundaki, Navoiy na'tlarda qanday masalalarni tasvirga jalb etmasin, ular haqidagi fikrlarini yuksak badiiyat bilan ifodalashga erishadi.

Ilyos Ismoilov,
filologiya fanlari doktori

1. Хайрат ул-аброп, – Б. 47.

